

«QISHLOG'IM - QALB ARDOG'IM»

Respublika tanlovini e'lon qiladi

2-bet

Tong

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN - 2010-6092

2009-yil  
26-yanvar  
N:4  
(66701)

«Yangi avlod-2008» bolalar  
ijodiyoti festivali g'olib

DUSHANBADAN



Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi «Begoyim» nomli bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi Iroda Shamsiyeva 6 yoshda. Bog'chadagi musiqadan olgan darsi, qolaversa, Bolalar ijodiyoti uyining «Tantana» guruhidagi ustozlari Fotima Jo'rabyeva, Nigora Abdurahmonova-larning bergen saboqlari zoye ketmadi. Kuy va qo'shiqlaring bilan qalblarga ezgulik urug'ini sochaver, Irodaxon!

## HAMMASI SIZLAR UCHUN

2008-yilda mamlakatimizda 186 ta sport majmuasi buniyod etildi.

Aziz bolalar!

Bularning hammasi sizlar uchun, sizlarning yetuk, sog'lom farzandlar bo'lib, unib-o'sishlaringiz uchun ana shunday katta imkoniyat, shart-sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida ham shu masalalarga yanada kengroq ahamiyat qaratilganidan xabaringiz bor. «Sport-sog'lom avlod, sog'lom kelajak, deganidir. Binobarin, faqat xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi», dedi Prezident Islom bobongiz.

## 50 MILLION SO'M

2007-2008-yillarda mamlakatimizda Bolalar sog'lomlashtirish markaziga 50 million so'm miqdori imtiyozli moliaviy yordam ko'satildi.

## YANGI SPORT MAJMUASI

Poytaxtimiz Toshkentning Chilonzor tumanida yaqinda ishga tushgan «Chilonzor» bolalar sport majmuasi shu yerda yoshovchi o'smirlar uchun yaxshigina sovg'a bo'ldi. Sovg'a uchun kattalarga rahmat.

## GAPDON ODAM

Fransiyalik Lui Koleni dunyoning eng gapdon odami ekan.

Parpinyan shahrida bo'lib o'tgan shou-tadbirda u 124 soat nutq so'zлади. Inson nimalarga qodir ekan...

## UZOQ UMR KO'RISH SIRLARI YOKI SIZ UCHUN YANGI KITOB

To'g'ri ovqatlanish, tanani tozalash va chiniqish uzoq umr ko'rish garovi sanaladi. Yangi kitobni o'qing, undan yana-da ko'p ma'lumotlar olasiz.

DUSHANBAGACHA



# DIQQAT, TANLOV!

## Tanloving maqsad va vazifalari:

2009-yil – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida belgilangan chora tadbirlarni amalga oshirish hamda istiqlol yillarida mamlakatimizning chekka hududlari, jumladan, qishloq joylarining tarixi, u yerda istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarni, keng miyosda olib borilgan qurilish va obodonlashtirish, buniyodkorlik ishlarini, aholi orasida uzoq asrlar silsilasida yashab kelayotgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, faqatgina xalqimizga xos bo'lgan ezgu amallarni o'zida aks ettirgan bayram shodiyonalarini, milliy sport o'yinlari, milliy hunarmandchilik o'choqlarini bolalar nigohida gavdalantirish, «Qishloq – mo'jaz Vatan», degan xalqimizning purma'no aqidasini ular ongiga singdirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yurt bolalarini Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, qishloqlar tarixini o'rgatish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarish.

«Kamolot» YOIHMK homiyligidagi «Kamalak» Bolalar tashkiloti, «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari hamkorlikda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «QISHLOG'IM – QALB ARDOG'IM» Respublika tanlovini e'lon qiladi.

## Tanlov shartlari:

Tanlov quyidagi yo'naliishlarda olib boriladi:

- Eng yaxshi insho;
- Eng yaxshi lavha;
- Eng yaxshi maqola;
- Eng yaxshi she'r;
- Eng yaxshi fotolavha;
- Eng yaxshi rasm.

Ijodiy ishlar «Kamalak» Bolalar tashkilotining quyibog'inalrida hamda maktub orqali «Tong yulduzi» gazetasiga, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari tahririylarida qabul qilinadi. Sara ijodiy ishlar, «Tong yulduzi» gazetasiga, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari sahifalarida muntazam

yoritib boriladi.

Tanloving har bir ishtirokchisi ijodiy ish bilan bir qatorda o'zi haqida to'liq ma'lumot va 2 dona fotosurat ham yo'llashi shart.

Mazkur tanlov 2009-yilning 1-fevralidan 2009-yilning 1-dekabriga qadar davom etadi.

Tanloving hay'at a'zolari tomonidan barcha yo'naliishlar 1-, 2-, 3-o'rin sohiblari aniqlanib, tanlov yakuniga ko'ra Respublika «Kamalak» Bolalar tashkilotining maxsus diplomlari va qimmatbaho sovg'alari hamda «Tong yulduzi» gazetasiga, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari tahririylarining «Faxriy yorliq»lari bilan taqdirlanadi.

## MANZIL:

Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 11-uy. Respublika «Kamalak» Bolalar tashkiloti. Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy. «Tong yulduzi» gazetasiga, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari tahririylari. Konvert ustiga «Qishlog'im – qalb ardog'im» tantoviga, deb yozing.

Murojaat uchun telefon: 244-63-08 «Tong yulduzi», 244-94-38 «Gulxan», 244-94-39 «G'uncha».

## BIZGA QO'NGIROQ QILISHDI

Qashqadaryo viloyati, Chiroqli tumanidagi 151-maktab o'qituvchisi Ro'ziqul OTAMURODOV:

Biz «Tong yulduzi» gazetasining barcha sonlarini olib turibmiz. Juda yaxshi nashr. Unda berilayotgan bir-biridan qiziq hikoyalar, she'rlar va maqolalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Maktabimizda «Yosh adabiyotchilar» to'garagi bor. Uning o'n besh nafar a'zosi uchun «Tong yulduzi» eng yaqin sirdosh va dono maslahatchi sifatida qadrondan bo'lib qolgan.

Ilmga chanqoq o'quvchilarni ko'rib quvonaman. Ular ona O'zbekiston nomini yana-da yuksaklarga ko'tarishlariga ishonaman.

## MO'JIZAVIY OLAM

Men tongni kuzatishni yaxshi ko'raman. Badantarbiya qilishga ham erinmayman. Toza havodan nafas olishning o'ziyoq meni tetik qiladi. Erinchoq tengdoshlarimga hayron qolaman. Axir erta turib tong otishini kuzatsangiz, xuddi mo'jizalarga boy dunyoga kirib qolganday bo'lasiz. Bilasizmi, «Tong yulduzi» gazetasiga ham

xuddi shunday mo'jizaviy olam. Bekorga shunday nomlanmagan-da! U beg'ubor va musaffo tuyg'ular, ajib bolalikni tarannum etadi.

Gulhayo HIDOYATOVA,  
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi  
23-ixtisoslashgan maktabning  
7-«A» sinfi o'quvchisi

## QO'SHNINGIZNI UNUTMANG

Men o'z hayotimdagagi bir voqeani gapirmoqchiman. Qarang, qayerlarga ishga kirish-u, qanday urfdagi kiyimlarni sotib olish haqida o'ylabman-u, yon qo'shnimning uchta norasidaning onasi yolg'iz ayol holidan xabar olishni unutibman.

Bir kuni uyga kirayotib, qo'shnimning mungli ovozini eshitib qoldim.

– Qizim, sabr qil, ertalab chopqillab o'ynab ketasan.

Darhol narsalarimni uyga qo'ydim-u, ularnikiga chiqdim. Ayol anchagina xomush edi. Uch yoshli qizining ko'pdan buyon mazasi yo'qligini, o'ziyam anchadan beri ish topolmayotgani, do'xtirga olib


borishga puli yo'qligini aytди.

Darhol uyimga chiqdim-da, oxirgi modadagi ko'yak olishga yashirib qo'ygan pulimni chiqarib berdim. Qizchani olib, do'xtirga bordik. Bola qattiq shamollagan ekan. Do'xtirdan rosa gap eshitidik, chunki bolani vaqtliroq olib kelish kerak ekan.

Ko'p o'tmay, qizcha sog'ayib ketdi. Xalqimizda bir naql bor: qo'shning tinch, – sen tinch. Bas, shunday ekan, eng avvalo, ota-on, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarining holidan xabar olish bizning insoniylik burchimiz bo'lib qolsin.

Nargiza KAZAKOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi

## BILASIZMI?



Ukrainada ilk bora lo'ililarning «Alifbe» darsligi kitobi nashr etildi. Kitobda lo'ililarning o'ziga xos tilini saqlab qolishga harakat qilindi. «Alifbe» yana shunisi bilan o'rinlik, uni turli mamlakatlarda yashayotgan lo'ililar ham bemalol tushunishlari mumkin, darslik uch qismidan iborat. Birinchi qism – harflar, ikkinchi va uchinchi qism esa ertaklar va she'rlardan iborat.

\* \* \*

Odam tug'ilganda, uning miyasida 14 milliard to'qima mavjud bo'ladi. 25 yoshdan keyin ularning soni kuniga 100 mingtaga kamaya boradi. Bir varaq kitob o'qish bilan kishi 70 dona to'qimani umriga zomin bo'ladi.

\* \* \*



Odam ko'zi 10 mln. rangni farqlay oladi.

\* \* \*

Odam og'zida 40 mingdan ziyod bakteriya yashaydi.

\* \* \*

Odam tanasidagi yog'lardan 7 dona sovun olsa bo'ladi.

\* \* \*

Odam miyasining 80 foizini suv tashkil qiladi.

\* \* \*

O'rta yoshdagagi odam boshi 3,6 kilogrammni tashkil etadi.

\* \* \*

Havorang ko'zli odamlar boshqalarga qaraganda og'riqni ko'proq his etadi.



2009 Tong yulduzi  
26-yanvar

## U senga baxt olib kelsin

O'smirlik davri – musaffo havoli, zilol suvli, beg'ubor va charog'on dunyo. Unda sho'xliklar, o'yinlar, shu bilan birga, adashishlar ko'p. O'n ikki yoshida otasining nasihatiga qulog solmay, ko'cha changitgan va bezori bolalarga qo'shilib, oltin umrini elga sovurgan, qirq yoshida esa to'shakka mixlanib, afsus chekkan kishini bilaman. Bir kuni uni ko'rgani bordik. «Jon uka, meni gaplarimni yozing, – deya iltimos qildi u kuyunib, – men xato qildim, o'smirlik, yigitlik davrimni havoga sovurdim, ayting...ayting, bugungi o'smir adashmasin! Odamning kutgan kuni kelar ekan. Men ham kutgan kunim kelar, deb taralabedod qilib, ayshimni surib yuraveribman. Unga aql va mehnat bilan kelish kerak ekan. Men buni kech tushundim».

Hazrati Mir Alisher Navoiy bobomiz aytadilar:

Umrni zoye etma, mehnat qil,

Mehnatni saodating kalidi bil!

Davroqe, faqat mehnatgina odamni baxt cho'qqisiga yetaklaydi.

yetaklaydi.

Sen yo'ldasan, o'smir! Erkin, ozod Vataning, ona quchog'iday issiq, haroratli maktabing, dunyo havas qilib turgan imkoniyatlaring bor. Bu davr abadiy emas. Undan foydalanim qolsang, abadiy xazinaga ega bo'lasan. Ibn Sino aytganidek, odam bolasi o'n to'qqiz yoshgacha o'qiganini naqshga o'ygandek xotirasiga joylar ekan, undan so'ng, miya qotar va biror narsani yod olish biroz qiyinlashar ekan. Barcha buyuk insonlar o'smirlik davrida o'z yo'llarini tanib olganlar. Sen ham shu yo'lni tanlasang, yaxshi emasmi?!

Gapni qisqa qilaylik. Xullas, mana shu sahifa seniki! Uni yaxshi niyat bilan «Sen kutgan kun» deb atadik. Sen kutgan kun!.. U senga baxt olib kelsin! Nasib etib, oly o'quv yurti talabasi bo'lganindagi yoki boshqa orzularingga erishgan kuningda, mana shu gazeta yaxshi odam bo'lishimga turtki bergen edi, deya mamnun bo'lsang, bas!

## SEN KUTGAN

*Yangi sahifa*

– Shu sovuqda qayqqqa boramiz?  
– «Tong yulduzi»da yangi sahifa ochilibdi. Bi-i-r mehmon bo'p kelaylik!



### ORZULARIM QANOT YOZ

- Men o'z kasbimni tanladim.
- Kasbimning o'zimga yoqqan jihatlari:  
a) chin inson bo'lishimga yordam beradi;  
b) elga xizmat – olyi himmat;  
d) Vatanimga nafim tegadi.
- Kasbga sadoqat.

Ana shu reja asosida insho yozib, avval ustozlaringizga yoki ota-onangizga ko'rsating. Yozganlaringiz ularga yoqsa, bizga yuboring. G'oliblarga sovg'alarimiz tayyor.

– Buvijon, xatingiz chiroyli ekan.

– Xatim chiroqli emas, bo'lam, sen dabirlarning xatini ko'rmabsan. Ular juda chiroqli yozishgan.

– Dabirlar kim, buvijon?

– Ular shohlarning, xalqning suhbat, munozara va har xil masalalarini chiroqli tartib qoida bilan yozib beradigan kishilar bo'lishgan. Dabirlik qadimda san'at darajasiga ko'tarilgan. Dabirlar bilan bog'liq bir rivoyatni bilaman. Aytay, eshitasanmi?

– Mayli, ayting, buvijon, hali uyqum kelganicha yo'q.

– Dabirlardan biri shohning elchilik xatini bitayotgan ekan. U niyoyatda zukko, bilimdon kishi bo'lib, so'zni ipga dur tizgandek chiroqli tuzar ekan. Xatni yozayotganda, butun diqqatini bir nuqtaga jamlab, xotirjam ishlar ekan. U ham ro'zg'orli odam-da, oilaning hali bunisi kamayadi, hali unisi, tegirmonga tashlab

## KUN!

*Donishmandnoma*

Suqrotdan so'rabdilar:

- Qanday odamni baxtli sanamoq mumkin?
- U javob beribdi:
- O'tkir aql va teran, halol fikrlar egasi baxtiyordir.

\* \* \*

*Tiyarak ko'z*

O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni Senat tomonidan qachon ma'qullangan?



- 2007-yil 23-noyabrda.
- 2007-yil 1-dekabrda.

\* \* \*

*Oltin nasihat*



A'lo o'qishning muqim shartlaridan biri darslarni puxta tayyorlashdir.

## D A B I R N I N G XATOSI

turmasang bo'limganidek, ro'zg'orni ham kam-ko'stini to'ldirib bormasang, boshing g'avg'odan chiqmaydi. Xotini kirib: «Bug'doy tugadi», deb zorlanibdi. Dabir xat bilan andarmon bo'lganidan elchilik xatiga «Bug'doy tugadi», deb yozib yuboribdi. Ipak qog'ozga oltin suvlari bilan yozilgan elchilik xatini shohga olib boribdilar. Shoh niyoyatda nafis husnixat bilan yozilgan nomani ko'rib, «ofarin», debdi. Ammo xat orasidagi «bug'doy tugadi» degan za'faron o'tdek, begona jumlanib ko'rib, jahli chiqibdi. Dabirni darhol uning huzuriga keltiribdilar. Shoh begona so'zning sababini so'ragan ekan, dabir xotinining so'zini eslاب kulibdi-da, voqeani gapirib beribdi va qilgan gunohi uchun uzr so'rabdi.



– Shoh uni jazolamabdimi?

– Yo'q, jazolamabdi. Ammo Dabirning o'zi juda izza bo'libdi. Har qanday ishda, har qanday joyda hushyorlikni yo'qotmaslik kerak, bolam. Muhtojlikdan ustun bo'l hamisha!

*O'ZBEKKON*

## YECHIB KO'RING, FOYDASI BOR


- Farzand qilay seni o'zumga, Minnatin qo'yay yorug' yuzumga.

Bu misralar qaysi ulug' shoiring qalamiga mansub?



- «Hibatul-haqoyq» asarining muallifi kim?

- Ahmad Yugnakiy;
- Mahmud Qoshg'ariy;
- Atoyi;
- Ahmad Yassaviy;
- Nodira.




- Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari nomi nimani bildiradi?

- «Baxt keltiruvchi bilim»;
- «Saodatga yo'llovchi bilim»;
- «Bilimlar xazinasи».

- Selengur g'ori qayerda joylashgan?

- Chirchiq vohasida;
- Qashqadaryo vohasida;
- Boysuntog' etaklarida;
- Farg'ona vodiysiда;
- Toshkent viloyatida.



- «Sadoqat ko'ylagini kiydi» gapidagi fe'l nisbatini aniqlang.

- o'timli fe'l;
- o'timsiz fe'l;
- majg'ul nisbat;
- orttirma nisbat;
- o'zlik nisbat.




*Oila – muqaddas, uni hozirdanoq  
tushunib, ardoqlash ham muqaddasdir*

Biringiz qizimsiz, biringiz singlim,  
Ko'zlarimning oq-u qarosi, qizlar.  
Sizlarsiz dunyoning qizig'i yo'qdır,  
Har yigit umrining ma'nosi, qizlar.

Ibroym YUSUPOV

**YUZLARI OY QIZALOQLARIM***Mening yuzlari oy, so'zları bol qizaloqlarim!*

O'qishlarin yaxshimi? Uy yumushlarida onajoningizga doimiy yordamchi bo'lganiningizni ham bilamiz. O'tgan sonimizda «Qizlar akademiyasi» matabining kichik mehmoni Dilnoza Mahkamova bilan tanishgan edingiz. Axir siz To'marisdek jasoratli, Nodirabegimdek ilmli, Kumushdek iboli momolarimizning izdoshlarisiz. Bugungi hayotda, ilmda, ta'lim-tarbiyada ibrat olgulik onajonlarimiz, opalarimiz hayotimiza nur baxsh etib turibdi. Keling, quyida ularning hikmatga to'la dil so'zlariga qulqoq tutaylik:

**QIZLAR  
AKADEMIYASI****QO'LI GUL**

Suratlardagi munchoq (biser)lardan sumka, do'ppi va kashtaning yuziga chirolyi gullar tikib, bezak bergen qo'li gul kim ekan, deysizmi? U sizning tengdoshingiz Sayyorabonu Isroilova Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 32-maktabning 9-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Bo'sh vaqtini bekor o'tkazmaydigan Sayyorabonu onasining eng yaqin yordamchisi.



Uning orzulari bisyor. Mohir tikuvchi, mehribon shifokor, qo'li shirin pazanda bo'lsam, deydi.



To'ti YUSUPOVA – xalqimizning sevimli va ardoqli onaxonni, O'zbekiston xalq artisti:

– San'atsevar xalqimga, ayniqsa, jazzi qizaloqlarimga shunday degim keladi: ko'p o'qing, uqing, nozik qalblaringizda yaxshilik-ezgulik hislarini tuyib yashang. Qiz bola o'zining hayosi, go'zal xulqi bilan o'g'il bolalardan ajralib turmog'i lozim.

Odob-axloq degan tushunchalar sizning nozik qalbingizda hamisha saqlanib tursin.

Jazzi qizlarimga hamisha sog'lik-salomatlilik, hayotning katta sinovlaridan dadil qadam tashlab, halollik, poklik ila yetishishlarini tilayman.

**MO'YQALAM SEHRI**

rasm chizishni jon-u dilidan yaxshi ko'radi. Oilada katta farzand bo'lgani bois, uy yumushlari asosan uning zimmasida.

U kelajakda Respublika rassomchilik kollejida o'qib, liboslar bo'yicha dizayner bo'lish niyatida.

– Dugonalrimga milliy matolardan bejirim ko'ylaklar yaratib, egnilarida yal-yal yonib turishini istayman, – deydi Dilafro'z.



Tahririyatga bir qizaloq tortinibgina kirib keldi. U o'zini Dilafro'z deb tanishti. O'zi chizgan rasmlarini ko'rsatarkan, agar loyiq topsangiz, gazetangizga chop eting, dedi kamtarinlik bilan. Rasmlarga nigoh tashlar ekanmiz, qizaloqning iqtidoriga, ayniqsa, kamtarinligiga havasimiz keldi.

Dilafro'z Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 193-maktabning 9-sinfida o'qiydi. Maktabda a'lo o'qishi bilan birga,

**Yayra SA'DULLAYEVA** – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibasi:

– Akademiya – bu oddiy o'quv dargohi emas, unda aytilguvchi gaplarning o'z salmog'i, o'z mavqeい, o'z o'mni bor.

Akademiyada sizni hayot yo'llariga tayyorlashdan, dunyoning eng mashhur ayollarining ilm-fan va odamiylik, Vatan deb atalmish buyuk sultanatning himoyasi va ravnaqi yo'lidagi o'ziga xos ishlari haqida saboq berishidan umidvorman. Oila –muqaddas. Uni hozirdanoq tushunib, ardoqlash ham muqaddasdir. Keling, so'zimni shu yerda to'xtatib, siz faol ishtirokchisi bo'ladigan «Qizlar akademiya»siga sermahsullik va seravj aks-sado tilayman.

**SABOQ BERDI**

**Robiya SHAMSIDDINOVA** – Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani:

– Men gazetangizda «Qizlar akademiyasi» rukni ochilganidan xursand bo'ldim. 6-sinf o'quvchisi Dilnoza haqida anchagina maqtov so'zlar yozilgan ekan. Unga chin dildan havasim keldi. Qani endi meni ham gazetangizda maqtab yozsangizlar. Biroq, o'zim haqimda o'yab ko'rsam, ancha erkalanib ketgan ekanman, hatto onam tayyorlagan ovqatni yeb, idishlarni ham yig'ishtirmay, faqat televizor ko'rish-u o'rtoqlarim bilan ko'chalarda gap sotishdan nariga o'tmas ekanman. Meni bu sahifadagi so'zlar ancha o'ylantirib qo'ydi. Endi umuman boshqacha qiz bo'lishga, o'z ustimda ko'proq ishlashga kirishdim.

**MAMNUN BO'LDIM**

**Nasibaxon VOISOVA** – M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi:

– Mening birinchi maqolam 9-sinfda o'qib yurganimda «Tong yulduzi» gazetasida chop etilgan. Shundan buyon bu gazetaning doimiy muxlisiman.

Men qizlarga atab alohida sahifa ochilganidan mammun bo'ldim.



Nazokat va Malika opa-singil. Biri qo'shiq aytsa, biri raqsga tushadi

Sahifani MANZURABONU tayyorladi



2009

Tong yulduzi  
26-yanvar

## Quvnoq tanaffus



### «TANAFFUS TABRIKLARI» MENGA YOQDI

Andijonlik tengdoshim Manzura Abdurasulovaning «Tanaffus» sahifasida bir-birimizni, ustozlarimizni tabriklab borish haqidagi taklifi mena yoddi. Va men ham birinchilardan bo'lib ustozim Zamira opa Mo'minovani yaxshi niyatlar bilan boshlangan 2009 – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» bilan tabriklamoqchiman. Chunki bu yil bizning qishlog'imizdagi maktablarda ulkan o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda.

Sevara MAMATOVA,  
Jizzax viloyati, G'allaorol tumani

**Snora Ashurova Navoiy shahrida tug'ilgan. Bolaligidan ijodga ishtiyogi baland: U 4-5 yoshidan biyron she'r yodlab, o'zi ham mashq qila boshladi.**


### QISH GASHTI

Pag'a-pag'a yog'ar qor,  
Ko'kdan parlar elanar.  
Borliq bo'lar beg'ubor,  
Oppoqlikka belanar.

Ayoz qilar tantana,  
Go'zal bo'lar dalalar.  
Yetaklab qirga chana,  
Zavqqa to'lar bolalar.

Qorbobo yasab shodon,  
Rohat, huzur topishar.  
Pisand emas qahraton,  
Tepalikda chopishar.

Bo'ron ko'rsatar kuchin,  
Shiddat-shashti o'zgacha.  
Lekin bolalar uchun,  
Qishning gashti o'zgacha.



Snora ASHUROVA,  
Navoiy shahridagi  
15-maktabning 7-sinf  
o'quvchisi

### TOPISHMOQ



Har kuningni rejalab  
Tinim bilmay yuradi.  
Uyg'otsa ham ertalab  
O'z joyida turadi.

(Soat)


### TOMOSHA ZO'R BO'LTDI



Sirkni kim ko'rmagan deysiz?! U barchamiz uchun sevimli. O'zbekistonda XX asr boshlaridan guruh bo'lib tomosha ko'rsatish harakati boshlangan. 1976-yilda Toshkentda zamonaviy sirk binosi ishga tushirildi. Bu hashamatli bino keyinchalik 1999-yilda qayta ta'mirlanib, uning chiroyiga chiroy qo'shildi.

Shundan buyon u bizga ajoyib tomoshalarini ko'rsatib kelmoqda. Bu yil ham qishki mavsum tomoshalari zo'r bo'ldi. Sahnalashtirilgan sarguzashtlar bilan birga hayvonlarning turli harakatlari har yilgidek kishini hayratlantirdi.

Feruza XURSANDOVA,  
Respublika rassomchilik kolleji




Tanaffusda faqat o'yin-kulgi qilish kerak, deb o'ylaysizmi? Albatta, yo'q. Chunki bu vaqtida foydali ishlarni amalga oshirish ham mumkin. Masalari, doskaga har nimalarni yozib uni bejash o'rniga, aksincha, keyingi soatdagi darsga doskani artib, tayyorlab qo'ying. Xonani shamollatishni ham unutmang! Shunda keyingi dars juda soz o'tadi. Sizga bu gaplarni nima uchun aytayotganimni bilasizmi? Chunki bir kuni tanaffusda sinfdoshlar bilan doskaga rosa yozib-chizib tashlagan edik. Birdan qo'ng'iyoq chalinib, ustozimiz kirib keldilar-u, darsni boshladilar. So'ng, doskaga bugungi mavzuni yozmoqchi bo'lganlarida, doskaning ahvolini ko'rib, ranjidilar. Biz qizlar esa uyalib qoldik. Siz ham uyalib qolmang!


SAYYORA


### YANGI KITOB O'QIYMIZ

Aziz o'quvchilar! Tanaffusda kitob o'qishni yaxshi ko'rasiz-a? Bu gal tanaffusda o'qishingiz uchun sizga «Yangi asr avlod» nashriyoti yangi kitoblarni havola etadi. Ulardan biri «Shoxli Iskandar» nomli ertak kitobi bo'lib, rang-barang rasmlarga boy. «Zamonaviy odob-axloq» kitobi esa sizga kelajakda yaxshi inson bo'lishingizga yordam beradi. Qani, kim birinchi bo'lib bu kitoblarni o'qib, tanaffusda do'stlariga so'zlab berar ekan?



Kim zukko-yu,  
kim topqir? Men,  
deysizmi? Unday  
bo'lsa, 12 ta  
farqni toping-  
chi?!





2009

Tong yulduzi  
26-yanvar

## Dehqon bobo der: demak, dalamizga dam kerak

«ALIFBE» DA  
NECHTA  
HARF BOR?

(Boshi o'tgan sonda)

Dd

D ni ko'rib uchratdim  
Go'yo qiyshiq hujrani.  
Kichigi cho'mich kabi  
Dum-dumaloqdir labi.


Dengiz, daryo va yulduz,  
Daraxt, yomg'ir, do'l va muz.  
Odamlar va imorat  
Men ulardan iborat.  
O'zim cheksizman go'yo  
Meni deydilar...



O'tgan kun muallimga  
Daftarin berdi Orif.  
G'ijimlangan, siyoh tomgan  
Daftarga yo'qdir ta'rif.  
Ne qilarin muallim,  
Bilolmay qoldi darhol.  
Tozalasin, yuvsinmi yo  
Yoki bossinmi dazmol?

Qilmasdan darang-durung,  
Mehmonga tezroq yuring.  
Bitta emas, ikki tor,  
Uyimizda bor...

Sakra to'pim, sakra to'p,  
D'harfiga ism ko'p.  
Dono, Dilkash, Dilobar,  
Dilfuza bilan Dilbar.  
Bo'ldi, bo'ldi, yetadi,  
To'pim kimga yetadi.



Dehqon bobo der: demak,  
Dalamizga dam kerak.



- Salom, do'xtir,  
Darmon yo'qdir.  
- Iching dori  
Darmondori!

Qaysi oyda uzun tun?  
Qaysi oyda qisqa kun?



To'lqlarni bosaman,  
G'ijimlarni yozaman.  
Meni taniysiz darhol:  
Sizga ko'makchi...



D harfiga kirar dev,  
Bu qanaqa chizmà deb...

Gazetamizning o'tgan sonida bolalar shoirasi  
Kavsar Turdiyevaning «Alifbe»da nechta harf  
bor?» turkum she'rlarini e'lon qilgan edik.  
O'quvchilarimizdan ushuu she'rlarini to'lig'icha  
borishi haqida maktublar oldik. Shoiraning  
she'rlarini davomini gazetamiz orqali o'qib  
borasiz.

Ec



Esonmisiz-omonmisiz,  
Bugun bizga mehmonmisiz.  
Esonmiz-omonmiz,  
Eng haqiqiy mehmonmiz.



Jimjimadan yiroqman,  
Go'yo tishli taroqman.

E'lon

Uch og'ayni botirlar,  
Menden kelayotirlar.  
Bulbuligo'yo qushin  
Aytish ham menin ishim.  
Hayotman va ermakman,  
Hamma sevgan...




Esim ketdim E tomoñ,  
El yurtga berdik e'lon.  
E tushibdi elakka,  
So'ng qaytibdi ertakka.  
Hamma joyda qidiruv,  
Qaysi so'zda bordir u?



Erta tongdan ertalab,  
Echkichamni erkabal.  
Erinmay qilib ermak.  
Aytdi echkixon...



G'ichir-g'ichir tovushim,  
Mening ukam kovushim.  
Undan katta tetikman  
Oyoqdagi...



Uying men bilan yorug',  
Xonang issiq yo sovuq,  
Quvnoq qo'shiq yallalar,  
Men tufayli taralar.  
Changyutgiching chang yutar,  
Muzlatgiching muz tutar,  
Kino diling yayratar,  
Choynak choyni qaynatar.  
Topolmaysanmi yoki  
Menman...

«KATTA BOBO» BEKATI

Aziz bolajonlar!  
Bugungi suhabatimiz do'stlikka  
bag'ishlansa nima  
deysiz? Xo'sh,  
kimni biz chin do'st  
deymiz yoki  
bo'lmasa, kimga  
ishonsa bo'ladi? Bu  
xususda hech  
o'ylab ko'rganmisiz?

Inson dunyoga  
kelibdiki, bir-biri  
bilan bo'lib, do'stona  
munosabat  
asosida yashashga  
harakat qiladi. Buning uchun u umr bo'yi do'st  
orttiradi, uning mehriga suyanadi, yaxshi so'ziga  
muhtoj bo'ladi. Agar insонning beg'araz do'sti,  
ishongan kishisi bo'lsa, u hech qachon qiyalmaydi,  
mushkuli oson ko'chadi.

Aziz o'g'i-qizlarim, siz ayni do'stlashadigan,  
bir-biringiz bilan inoq bo'ladigan yoshdasiz. Aslida  
shu davrda orttirilgan do'st bir umrga davom etishi  
mumkin. Maktab quchog'ida bog'langan do'stlik  
rishtalari hayotingiz davomida ko'p bora  
asqotishini bilasizmi?

Xo'sh, qani aytin-chi, kimni haqiqiy do'st  
deyish mumkin? Bu savolga birdan javob berishga  
shoshilmang. Eng avvalo, bir odamni do'st-birodar  
deb tan olish uchun u dastlab sinovdan o'tishi lozim.  
Zero, hayot sinovlariga bardosh bergan do'stlik  
umrboqiy bo'ladi. Uni hech qanday kuch yenga  
olmaydi.

Har kuni maktabda, ko'cha-ko'yda  
tengdoshlarining bilan muloqotda bo'lasiz.  
Ularning suhabatidan bahramand bo'lib; har xil  
mavzuda bahslashasiz. Ana shunday onlarda kim  
do'st ekanligi ayon bo'lib qoladi.

Aslida haqiqiy do'st sanoqli bo'ladi. Zero,  
hammani ham do'st deb atash qiyin. Chunki  
yurakdan mehr qo'yish uchun bir-biringizga  
ishonish, dilingizdag'i bor gapni ochiq-oydin ayt  
olish kerak bo'ladi. Ana shunday tengdosh topilsa,  
u bilan do'stlashishga harakat qiling. Qo'lingizdan  
kelgan jami ezguliklarni unga ham baham ko'rib,  
samimiyo yo'ldosh bo'lishiga odatlaning. Doimo  
yaxshi so'zni do'stdan ayamasangiz, bunday  
yaqinlashuv uzoqqa cho'zilishi mumkin.

Aziz bolalarim, do'st tanlashda aslo  
adashmaslik lozim. Har kimga «Men bilan do'st  
bo'lasanmi?» deb murojaat qilishdan ma'novo'q.  
Do'stlik shunday haqiqatki, unga kuch, yolg'on  
so'z bilan yoki bo'lmasa biron manfaat yuzasidan  
erishib bo'lmaydi. Shuni unutmangki, kimdir do'st  
bo'lish uchun payt poylaydi yoki o'ziga ma'qul  
bo'ladigan narsaga erishish uchun tilyog'lamalik  
qiladi. Unday tengdoshdan haqiqiy do'st  
chiqmaydi. Bundaylarning yaqinlashuvini vaqtincha,  
ertaga yana kimgadir shunday muomalada bo'lib,  
sizni unutib yuborishi hech gap emas.

Yoshi ulug'lar har gal sizga bir-biringiz bilan  
do'st va inoq bo'linglar, deb nasihat qilishadi.  
Buning zamirida katta ma'novo yotganiga hali ko'p  
bora amin bo'lasiz. Do'sti bor odamning so'zi hech  
qachon yerda qolmaydi. Uning orzu-havaslari ham  
do'stligi safida ro'yogha chiqishi mumkin.  
Shunday ekan, do'stlikni qadrlab sizga yaqin  
bo'lgan insonlar hurmatini joyiga qo'ying. Ularning  
diliga yaqinroq bo'lish uchun maktabda yaxshi  
baholarga o'qib, doimo a'lo xulqli bo'lsangiz,  
aminmanki, do'slaringiz o'z-o'zidan ko'payadi.

Islam USMONOV



(Davomi bor.)



2009 Tong yulduzi  
26 yanvar


Humoyun Osiyo championi degan yuksak nomga sazovor bo'ldi

# S P O R T

## SHOHSUPADA G'OLIBLIKNI O'VLAYMAN!



Humoyun oltin medall bo'lganidan xursand.



Sevinchning oyisi gimnastika bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. 6 yoshli Sevinch Sodiqova ham har kuni sport sumkasini yelkasiga osib, mashg'ulotlarga shoshiladi.

### «K2»

#### CHO'QQISI SARI

Kuni kecha «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi hamda O'zbekiston alpinizm va tog' sporti Federatsiyasi tashabbusi bilan «Kamolot» YOIHda alpinist Ilyos Tuxvatullining dunyodagi eng baland cho'qqilardan biri «K2» cho'qqisiga uyushtirilgan ekspeditsiya munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida Xalqaro sport ustasi, O'zbekiston alpinizm va tog' sporti Federatsiyasi Vise-prezidenti Ilyos Hamidovich Tuxvatullin bilan uchrashuv va videofilm namoyish etildi.



Ilyos Tuxvatullin hozirga qadar yuzdan ziyod cho'qqilarni zabit etib ulgurgan. Ya'ni, o'z faoliyati davomida yetti marta yetti ming metrlik hamda ikki marta Everest cho'qqisini zabit etgan. U Pokistondagi 8611 metrlik «K2» cho'qqisiga yangi yo'l orqali ko'tarilgan.

Ilyos Hamidovich «Jasorat» medalii, «Mehnat shuhrati» ordeni sovrindori, xizmat ko'rsatgan sport ustasidir.

*Humoyun Shukurov poytaxtning Yunusobod tumanida joylashgan harbiy sport maktabi 8-«V» sinfida tahlil oladi. Sportning karate turi bilan shug'ullanayotganiga besh yildan oshdi. 2008-yil Humoyun uchun zafarlar yili bo'ldi. U Osiyo championi degan yuksak nomga sazovor bo'ldi.*

Karate bilan shug'ullanishni boshlagan har bir bola avvalo, uning tarixini, an'analari va qadriyatlarini o'rganishi kerak, deyishadi. Yana aytishadiki, uni anglamoq uchun jiddiy shug'ullanish kerak. Shug'ullanganda ham yaktag-ü chalvoringiz terdan shalabbo bo'lsin, tanangizdan ko'tarilayotgan taft hovri kimonongizni quritsin. Tinimsiz mehnat, sabr-bardosh, mashaqqatlarni sabot bilan yengib o'tish bir kun kelib sizni qadr, hurmat, ehtirom shohsupasi sari eltadi. Komillik, jismoniy va ruhiy uyg'unlikka erishish yo'lini karateda ko'rgan qahramonimiz katta orzular og'ushida mashaqqatlari va ayni chog'da zavqli bo'lgan yo'lni tanladi.

Keling, yaxshisi, shohsupaga ko'tarilishgacha bo'lgan jarayon haqida Humoyunning o'zidan eshitamiz:

—Dadam tarixchi. Xizmat taqozosi tufayli yurtimizning ko'p joylarida ishlashlariga to'g'ri kelgan. Shu bois, oilamizdag'i besh farzand respublikamizning turli viloyatlarida tug'ilishgan. Jumladan, men Samarqand viloyati, Ishtihon tumanidagi «Mehnat — rohat» shirkat xo'jaligining Robot qishlog'ida tug'ilgan ekanman. Sportdagi ilk tarbiyamni Surxondaryoning Uzun tumanidagi «Uzun» klubida boshlaganman. Bunga esa o'rtog'im Tohir sababchi bo'lgan.

Bir kuni u mashg'ulotga ketayotganini aytdi. Negadir unga ergashgim keldi. O'sha kuni men ham murabbiy Ilhom aka Shoynazarov mashg'ulotlarida ishtirok etdim. Mashg'ulot menga juda yordi. Shundan so'ng, har kuni dars tugashi bilan Ilhom aka bugun nimani o'rgatarkin, degancha bir to'da bolalar klubga shoshardik. Mashg'ulotlar davomida karateni chindan ham yaxshi ko'rib qoldim. Oldimizga vaqt kelib biz ham ulkan natijalarga erishamiz, degan niyat bor edi. Saboqlar davomida turli xil musobaqalarda ishtirok etishimiz bizni saralab, sinovdan o'tkazdi.

Ilk yutuqlarni dastlab klubimizda, tumanimizda, keyinchalik esa viloyat musobaqalarida qo'lga kiritdim. Termiz shahridagi va Andijonda bolalar va o'smirlar o'rtaida bo'lib o'tgan «Oltin vodi» musobaqasidagi g'oliblik meni tengdoshlarimga tanitdi. Ketma-ket g'oliblik shohsupasiga ko'tarilayapman-u, yana g'oliblik haqida o'yaldim...

7-sinfni bitirib, Toshkentga keldim. Bu yerda tajribali murabbiylar Dilshod Karimov va 6-Dan qora belbog' sohibi Adham Yunusovdan karate-doning sirlarini o'rgana boshladim. Harbiy sport maktabida leytenant Qobil Azizzonov rahbarlik qilayapti.

Nihoyat, 2008-yil so'ngida Malayziyada bolalar va o'smirlar o'rasisida o'tkazilgan xalqaro musobaqadan bronza medali bilan qaytgan bo'lsam, Italiyaning Issolya shahrida bo'lib o'tgan Osiyo championatida oltin medal va championatning kubogi menga nasib etdi.

Mutaxassislarning aytishlaricha, karate sport turi negizida eng pokiza orzular, umidlar voyaga yetarkan. Karatening asl maqsadi — himoya. Karatedek qudratli san'atni puxta egallash uchun intilayotgan Humoyunga bu yo'lda ulkan zafarlar tilaymiz.

Sportchi uchun shohsupada muqim turmoq oson emas. Chunonchi, yutuqlar omili faqat mehnat va izlanishdadir.



## RONALDUGA KO'Z TEGDI

Yaqindagina FIFA an'anaga ko'ra yana o'z g'oliblarini aniqladi. 2008-yilning «Eng yaxshi futbolchi» nomi bu safar Portugaliya termaga jamoasi va «Manchester Yunayted» futbol klubining yarim himoyachisi Krishtianu Ronalduga nasib etdi.

Ammo yuksak mukofot futbolchiga qimmatga tushdi. U o'zining qizil «Ferrari» avtomashinasida avtohalokatga uchrab, omon qoldi...

Biz esa xulosa qildik: yuksak mukofotga, y u l d u z futbolchiga ko'z tegdi, shekilli... Nima bo'lganda ham, futbol sari y u l d u z l i k o l a m i g a shoshayotgan bolajonlarimizga maslahatimiz: kelajakda o'z mashinangiz tezligini oshirmang, negaki, yo'l qoidasi — umr foydasи.

## BEKKEM KELARMISH...

Yaqinda o'z safiga «Milan» betakror futbol yulduzi Bekxemni qo'shib oldi. Ammo mutaxassislar Bekxem va «Milan» jamoasining fevral va mart oylariga belgilangan ko'rgazmali chiqishlarida qatnashishini bot-bot takrorlamoqdalar.

4-fevral kungi uchrashuv Shotlandiyada, 4-mart kungi ko'rgazmali chiqish esa Saudiya Arabistonida bo'lib o'tadi. Dunyo yulduzi uchinchi uchrashuvini agar bo'sh vaqt topsa, O'zbekistonda yoki Ozarbayjonda o'tkazar emish...

Bekxemni ko'rish orzusi ayni damda kichik futbolchilarga quvonch bag'ishlab turibdi.





2009 Tong yulduzi  
26-yanvar

Fanda keng, tekis yo'l yo'q

# BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Harbiy unvon		Yirik inju	Nashr-ga a'zolik	Qurilmanni bosh-qaruvchi	G'al-la	Zamon, vaqt	Say-roqi qush
Sudan poy-taxti			Axborot nashrlari		To'ti turi		
Odilona ish yurtuvci	Daraxt	Eng yuqori natija		Musiga asbobi	Rus geolog olimi		
Tortiq						Samo jismi	
Mexanik odam	Ijod Mahsuli	Yuqori daraga ifodasi	Silindrsimon qism			Masofa	
Futbol jamoa				Maftun (kitobiy)			
Tabiiy fan			Janub tumani	Uchish qurilmasi	Bog-lovchi		Mangilik
			Vagon bo'lmasi			Xonardon	
Cho'pon yrdamchisi	Tinish belgi	Avto marka	O'simlik a'zosi	Harbiy xizmatchi	Tola ekini		Amerika astro-navti
Nomus	Nasl, zot	Binokor					
		Shirinlik					
		Tennis maydoni					
Vazn birligi				Oy nomi			

*Har ishda afzaldir  
bilim orttirish,  
Bilim orttirmoqqa  
astoydil kirish.*

Abdurahmon Jomiy

F.ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va sahifalovchi:  
Zuhra MUHSIMOVA  
Navbatchi:  
Axtamkul KARIM

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.


TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10


Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 63474  
Buyurtma N: J 6790



## MITTI ELEKTOR MOTORI



Eng mitti elektr motorini yaratishga fransuz Jan Filippo 1942-yilda muvaffaq bo'lgan. Uning bo'y 3,5 millimetrik, vazni 0,5 gramm, motor har daqiqaga 4 ming martadan ortiq harakatlanib, 2 voltli kuchlanishdangina quvvat oladi.

## YANGILANGAN REKORD


2002-yili Everest cho'qqisiga ko'tarilgan yaponiyalik 63 yoshli qariya Tomas Vatanabe Everestni zabt etgan dunyodagi eng qari alpinist hisoblanadi. Shuning uchun ham uning nomi Ginnesning «Rekordlar kitobi»ga kirgan. Avvalgi rekord polshalik ayolga tegishli edi. U 2000-yili 50 yoshida mazkur cho'qqiga ko'tarilgan.

## HINDISTON QIT'ASI

Bundan 45 million yil avval Hindiston alohida qit'a bo'lgan. Uni Tetis okeani Osiyo qit'asidan ajratib turgan.



Muassislar:  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.



Dizayner va sahifalovchi:  
Zuhra MUHSIMOVA  
Navbatchi:  
Axtamkul KARIM

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 63474  
Buyurtma N: J 6790